

MAHALLA XOTIN-QIZLAR FAOLLARINING AYOLLAR MUAMMOLARINI O‘Z VAQTIDA ANIQLASH VA HAL ETISH BORASIDA XORIJIY MAMLAKATLAR TAJRIBALARI

Mambetjanov Qahramon Kurbandurdiyevich ¹

¹ Oila va gender ilmiy-tadqiqot instituti
loyiha bosh ilmiy xodimi, i.f.d., prof.

MAQOLA MALUMOTI

ANNOTATSIYA:

MAQOLA TARIXI:

Received: 14.06.2025

Revised: 15.06.2025

Accepted: 16.06.2025

KALIT SO‘ZLAR:

*Xotin-qizlar, ijtimoiy
qo‘llab-quvvatlash,
psixologik yordam, gender
tengligi, profilaktika,
jamoatchilik monitoringi,
mahalla tizimi,
institutsional hamkorlik.*

Mazkur maqolada xotin-qizlarning muammolarini erta aniqlash va manzilli yordam ko‘rsatish bo‘yicha xorijiy mamlakatlar — Shvetsiya, Hindiston, Janubiy Koreya va AQSH tajribalari tahlil qilingan. Mazkur davlatlarda xotin-qizlar muammolarini hal etishda institutsional hamkorlik, profilaktik yordam, huquqiy va psixologik maslahatlar, jamoatchilik monitoringi kabi samarali mexanizmlar qo‘llanilayotgani tahlil qilindi. Tadqiqot natijalari asosida O‘zbekistondagi mahalla tizimi uchun mos keladigan ilg‘or tajribalar tavsiya etildi.

KIRISH. Bugungi globallashuv sharoitida jamiyatda ayollar rolini mustahkamlash, ularning ijtimoiy faolligini oshirish va muammolarini barvaqt aniqlashga qaratilgan masalalar barcha mamlakatlar uchun dolzarb masalaga aylangan. Ayniqsa, mahalla tizimida xotin-qizlar bilan ishlash amaliyoti jamiyatda barqarorlikni ta‘minlash, oilaviy munosabatlarni mustahkamlash va ehtiyojmand ayollarga manzilli yordam ko‘rsatishning samarali mexanizmi sifatida namoyon bo‘lmoqda⁶⁶.

O‘zbekistonda xotin-qizlar faollarining ayollar muammolarini o‘z vaqtida aniqlash va hal etish borasidagi ishlar izchillik bilan amalga oshirilayotgan bo‘lsa-da, xorijiy mamlakatlar tajribasini o‘rganish va ulardan ijobiy jihatlarni olish bu sohani yanada rivojlantirishga

⁶⁶ <https://www.unwomen.org>

xizmat qiladi. Jumladan, AQSH, Shvetsiya, Hindiston, Janubiy Koreya kabi davlatlarda xotin-qizlar huquqlarini himoya qilish, jinsiy tenglikni ta'minlash va ayollar muammolarini kompleks yondashuv asosida hal etishda mahalliy hokimiyat organlari, nodavlat tashkilotlar va jamoatchilik vakillari hamkorligi muhim o'rin tutadi⁶⁷.

Masalan, Shvetsiyada gender siyosati davlat boshqaruvi va mahalliy idoralar faoliyatining ajralmas qismi hisoblanadi. Har bir mahallada ayollar uchun ochiq eshiklar kuni, huquqiy maslahat markazlari va alohida jamoalar faoliyat yuritadi⁶⁸. Hindistonda esa ona va bolalarni rivojlantirish markazlari orqali ayollar bilan doimiy mahalliy ish olib boriladi, onalar va bolalar salomatligi, ta'lim va ijtimoiy qo'llab-quvvatlash borasida tizimli ishlar amalga oshiriladi⁶⁹. Bunday tajribalar mahalla xotin-qizlar faollari faoliyatini takomillashtirishda muhim o'rin tutadi.

Shu bois, xorijiy mamlakatlarda ayollar muammolarini aniqlash va hal etishdagi ilg'or tajribalar o'rganilib, ularni mahalla tizimiga moslashtirish imkoniyatlari tahlil qilindi. Xususan, ayollar muammolarini erta aniqlash, profilaktik choralar ko'rish, jamiyatda faol ishtirokini ta'minlash va institutsional hamkorlik masalalariga alohida e'tibor qaratiladi.

Metodologiya. Ushbu ilmiy tadqiqotda xorijiy mamlakatlarda mahalliy darajada xotin-qizlar bilan ishlash, ularning muammolarini o'z vaqtida aniqlash va hal etish amaliyotini o'rganish orqali O'zbekistondagi mahalla tizimi uchun mos keladigan samarali yondashuvlarni aniqlash maqsad qilib olindi. Tadqiqotda Shvetsiya, Hindiston, AQSH va Janubiy Koreya kabi davlatlarning ayollar muammolarini mahalliy darajada hal etishdagi usullari o'rganildi va O'zbekiston tajribasi bilan taqqoslandi. Bu orqali umumiy va farqli jihatlar, shuningdek, mahalliy sharoitga mos kelishi mumkin bo'lgan elementlar aniqlandi. Shvetsiyadagi "Gender tengligi kengashlari", Hindistondagi "Ona va bolalarni rivojlantirish markazi", Janubiy Koreyadagi "Ayollar baxt markazlari" faoliyatlari tahlil qilindi. Bu tashkilotlarning tuzilishi, vazifalari va mahalliy ayollar muammolarini qanday hal etishdagi yutuqlari misol tariqasida o'rganildi.

Natijalar (Results). Shvetsiyada mahalliy darajada xotin-qizlar bilan ishlash davlat siyosatining ajralmas qismi hisoblanadi. Unda xotin-qizlar muammolarini mahalliy darajada aniqlash va ularga yordam ko'rsatish davlat siyosati doirasida uzviy tashkil etilgan. Bu jarayon Gender tengligi kengashlari orqali amalga oshiriladi va asosan quyidagi yo'nalishlarni qamrab oladi. Gender tengligi kengashlari ayollarga doimiy ravishda psixologik, huquqiy va ijtimoiy yordam ko'rsatishni muvofiqlashtiradi. Mahalliy muloqot va monitoring – har hafta mahallada "Ochiq eshiklar kuni" tashkil etiladi. Bu kunlarda faol ayollar va psixologlar ayollar bilan muloqot o'rnatib, yashirin zo'ravonlik holatlarini aniqlash, yordamga muhtoj ayollarni aniqlashga harakat qilishadi. Uchinchidan, huquqiy

⁶⁷ OECD. (2020). *Women in Public Life: Gender, Law and Policy in the Middle East and North Africa*.

⁶⁸ Swedish Institute. (2022). *Gender Equality in Sweden*. Stockholm.

⁶⁹ Ministry of Women and Child Development, India. (2021). *Integrated Child Development Services (ICDS)*. Government of India.

maslahatlar va psixologik yordam markazlari – shaharlarda va katta mahallalarda maxsus ayollar markazlari faoliyat yuritadi. Bu markazlarda: Yuristlar tomonidan bepul maslahatlar, psixologik diagnostika va kognitiv terapiya, zo‘ravonlikka uchraganlar uchun reabilitatsiya xizmati taqdim etiladi.

To‘rtinchidan, maxfiy ma’lumotlarni saqlash va tahlil qilish tizimi – har bir xizmat jarayoni maxsus axborot platformasi orqali elektron ravishda qayd etiladi, bu ma’lumotlar xavfsizlik va maxfiylik tamoyillariga qat’iy rioya etgan holda markazlashtiriladi. Beshinchidan, samaradorlikni baholash –yil yakunida har bir mahallada ko‘rsatilgan xizmatlar statistikasi yig‘iladi. 2022-yilda mazkur tizim orqali 7000 dan ortiq ayolga yordam ko‘rsatilgan⁷⁰.

Hindistonda “Bolalarni rivojlantirish xizmatlari” markazlari va “Ijtimoiy salomatlik faollari” dasturi orqali mahalliy darajada ayollar muammolarini barvaqt aniqlash va hal etish samarali yo‘lga qo‘yilgan. Ushbu markazlarda quyidagicha faoliyat olib boriladi: har bir mahallani uyma-uy yurib, ona va bola salomatligi holatini baholaydi, tibbiy, reproduktiv va ijtimoiy muammolarni ro‘yxatga oladi, tegishli xizmatlarga yo‘llanma beradi.

Tahlillar ushbu xizmat joriy etilgan mahallalarda ona va bolalar o‘limi 28 foiz kamayganini, profilaktik tibbiy xizmatlardan foydalanish darajasi 40 foizga oshganini ko‘rsatmoqda⁷¹.

Shuningdek, ushbu dastur doirasida tayyorlangan faol ayollar mahalladagi har bir xonadonga muntazam tashrif buyurib, ayniqsa homilador ayollar, yangi tug‘ilgan chaqaloqlar va zaif guruhlariga mansub xotin-qizlar bilan aloqada bo‘ladi. Ular nafaqat tibbiy holatni kuzatadi, balki oilaviy zo‘ravonlik, turmush muammolari, psixologik holat va ijtimoiy muhit haqida ham ma’lumot to‘playdi. Bu ma’lumotlar mahalliy tibbiyot muassasalari va ijtimoiy xizmatlar markaziga yetkazilib, har bir ayol uchun individual yordam rejasi ishlab chiqiladi.

“Bolalarni rivojlantirish xizmatlari” markazlari va “Ijtimoiy salomatlik faollari” xizmati joriy etilgan hududlarda quyidagicha samarali natijalar bergan: Ona va bolalar o‘limi 28 foiz kamaygan, emlash qamrovi 35–40 foizga oshgan, reproduktiv xizmatlardan foydalanish darajasi 40 foizga o‘sgan, 2021-yil yakuniga ko‘ra, dastur faollari orqali 300 millionga yaqin ayolga profilaktik yordam ko‘rsatilgan⁷².

Janubiy Koreyadagi “Ayollar baxt markazlari” har bir tuman va mahallada faoliyat yuritib, ayollar uchun: salomatlik ko‘riklari, huquqiy maslahatlar, kasb-hunar o‘quvlari, gender zo‘ravonligi holatlarini aniqlash va yechim topish xizmatlarini bepul taqdim etadi.

⁷⁰ Gender Equality Annual Report, Sweden, 2023

⁷¹ Nair et al., *Human Resources for Health*, 2022

⁷² India Ministry of Health and Family Welfare, 2022

2021-yilda ushbu markazlar orqali 18 mingdan ziyod ayolga individual yordam va maslahat berilgan⁷³. Ushbu model ko'p darajali xizmat ko'rsatish orqali ayollarning ijtimoiy faolligi va ishonchini oshirishda muhim rol o'ynagan.

Janubiy Koreyada "Ayollar baxt markazlari"ning asosiy vazifasi – mahalliy darajada xotin-qizlarning turli ijtimoiy, huquqiy va ruhiy muammolarini erta aniqlash va hal etishdan iborat. Ushbu markazlar har bir tuman va mahallada joylashgan bo'lib, davlat tomonidan moliyalashtiriladi va jamoatchilik hamkorligida faoliyat yuritadi. Markazlar faoliyati quyidagi yo'nalishlarni qamrab oladi: Sog'liqni saqlash va profilaktika, ayollar uchun muntazam tibbiy ko'riklar, ayniqsa ginekologik profilaktika tadbirlari, ruhiy sog'liqni baholash uchun psixolog maslahatchilari xizmatlari, qo'shimcha sanitar va immunitetni mustahkamlash kurslari joriy etilgan.

Huquqiy va ijtimoiy yordam: Zo'ravonlik holatlarida bepul huquqiy maslahat va sudgacha himoya mexanizmlari, ayollarga nisbatan sodir etilgan jinoyatlar bo'yicha maxsus himoyalash orderlarini rasmiylashtirishda yordam, bolali ayollarga huquqiy maslahat va aliment ta'minotida yordam ko'rsatish.

Iqtisodiy imkoniyatlar yaratish: Ayollar uchun qayta kasbiy tayyorlash va o'quv kurslari (IT, xunar, tadbirkorlik, onlayn savdo), ijtimoiy yordamga muhtoj ayollarni ish bilan ta'minlash uchun davlat va xususiy sektor bilan hamkorlik dasturlari, ayol tadbirkorlar uchun mikrokreditlar, subsidiyalar haqida maslahatlar.

Gender tengligi va ta'lim: Ota-onalar uchun gender masalalari bo'yicha ma'rifiy seminarlar, yoshlar va qiz bolalar uchun o'zini himoya qilish, gender hurmati va o'z so'ziga ega bo'lish qobiliyatini oshirish bo'yicha treninglar, jamoada gender tengligini targ'ib qilish uchun media va turli festivallar o'tkaziladi.

AQSHda xotin-qizlar muammolarini o'z vaqtida aniqlash va hal etish masalalarida "jamoaga asoslangan yondashuv" keng qo'llaniladi. Bu yondashuvning asosiy ustunligi – mahalliy darajada ish yurituvchi nodavlat tashkilotlar, faollar va jamoat yetakchilarining birgalikda harakat qilishidir. Faoliyat doirasida quyidagi mexanizmlar keng qo'llaniladi:

✓ Muntazam muloqot va uyma-uy tashriflar: mahalla yetakchilari va faol ayollar xonadonlarga tashrif buyurib, ayollar ehtiyojlari, muammolari va tahdidlar haqida shaxsiy muloqot orqali ma'lumot to'plashadi. Bu jarayon alohida ishonch muhitida amalga oshiriladi.

✓ Fokus-grupplar va treninglar: ayollar uchun jinsiy tenglik, o'zini himoya qilish, huquqiy ma'lumotlar, reproduktiv salomatlik, zo'ravonlikka qarshi choralar haqida muntazam ravishda seminarlar o'tkaziladi. Masalan, "Rejalashtirilgan ota-onalik" tashkilotlari tomonidan har oyda 10-15 guruh yig'ilib, 100 nafargacha ayol qamrab olinadi.

✓ Favqulodda holatlarda qo'llab-quvvatlash: ayniqsa zo'ravonlik, zo'ravonlik yoki shantaj holatlarida bevosita murojaat qilish mumkin bo'lgan maxsus markazlar va ko'chma

⁷³ Korean Women's Development Institute, 2022

maslahat markazlari ishlab turadi. Bu markazlar psixolog, huquqshunos va shifokorlar bilan ta'minlangan bo'ladi.

AQSHda 2022-yilda "Ayollar boshpanasi" nomli nodavlat tashkiloti 22 ta shtatdagi mahalliy markazlari orqali 100 000 dan ziyod ayolga quyidagi xizmatlarni taqdim etgan:

✓ Qisqa muddatli turar joy – zo'ravonlik qurboni bo'lgan ayollar va ularning farzandlari uchun xavfsiz joy ajratish.

✓ Psixologik maslahat va reabilitatsiya – individual terapiya, guruh mashg'ulotlari va stressni boshqarish treninglari.

✓ Huquqiy yordam – sudga murojaat qilish, himoya orderi olish, bolalarni himoya qilish masalalarida advokatlar xizmatini bepul taqdim etish.

✓ Ish topish va qayta hayotga moslashish – ayollarga kasb-hunar o'rgatish, ishga joylashtirish uchun ko'mak, jamiyatda qayta ijtimoiylashish bo'yicha dasturlar.

1-jadval.

Xorijiy tajriba asosida mahalliy darajada xotin-qizlar muammolarini hal etishning mexanizmlari

Mamla kat	Mehanizm	Asosiy faoliyat yo'nalishlari	Samaradorlik ko'rsatkichlari	Tavsiyalar
Shvesiya	Gender tengligi kengashlari	– Mahallalarda "Ochiq eshiklar kuni" – Bepul huquqiy maslahatlar – Psixologik yordam markazlari – Jamoaviy monitoring	– 2022-yilda 7000+ ayol profilaktik yordam olgan – Har bir tumanda muntazam faoliyat	Mahallada "Huquqiy maslahat kunlari"ni yo'lga qo'yish, faol ayollar orqali nazorat tizimi
Hindiston	Integratsiyalashgan bolalarni rivojlantirish xizmatlari" markazlari va "Ijtimoiy salomatlik faollari" dasturlari	– Xonadonma-xonadon yurib sog'liq holatini baholash – Ona va bola uchun tibbiy xizmatlar – Muammolarni ro'yxatga olish va yo'llanma berish	– Onalar o'limi 28 foizga kamaygan – Tibbiy xizmatdan foydalanish 40 foizga oshgan	Sog'liq bo'yicha faollar tayyorlash, monitoring kartalari joriy etish
Janubiy	Ayollar baxt	– Sog'liq	– 2021-yilda	Kasbga

Koreya	markazlari	ko'riklari, huquqiy yordam, kasb-hunar kurslari – Zo'ravonlik holatlarini aniqlash va yordam berish – Bepul ko'mak markazlari	18,000+ ayol bevosita yordam olgan – Ayollar ijtimoiy faolligi va ishonchining oshishi	o'qitish markazlarini mahalla miqyosida joriy qilish
AQSh	Jamoaga asoslangan nnt	– Uyma-uy tashriflar va shaxsiy muloqot – Jinsiy tenglik va huquqiy kurslar – Zo'ravonlik uchraganlarga turar joy, huquqiy yordam, psixologik ko'mak	– 2022-yilda 100,000+ ayol qamrab olingan – Murojaatlar soni 23 foizga oshgan – Axborot maxfiyligi va hisobot tizimi joriy etilgan	NNT bilan hamkorlikni kengaytirish, raqamli ma'lumot bazasini shakllantirish

Bu tashkilotning tajribasi ayollarga zudlik bilan ko'mak berish, ularning sha'ni va xavfsizligini ta'minlashda samarali mexanizm sifatida tan olingan. Hisobotlarga ko'ra, 2022-yil davomida muammolarni aniqlash vaqtining qisqarishi va yordamga murojaatlar sonining 23 foizga oshgani kuzatilgan⁷⁴.

Axborot maxfiyligi va monitoring tizimi

Notijorat tashkilotlar faoliyatidagi muhim jihatlardan biri – ma'lumotlarni maxfiy saqlash va markazlashgan hisobot tizimini joriy etishdir.

Barcha xizmatlar maxfiy asosda amalga oshiriladi va xizmatdan foydalangan ayollar roziligi bilangina ma'lumotlar raqamlashtiriladi. Bu tizimning afzalliklari:

- ✓ Qayta murojaat etish holatlarida xizmatlarni tezkor muvofiqlashtirish;
- ✓ Mahalliy muammolar bo'yicha statistik tahlillarni to'plash;
- ✓ Davlat va mahalliy hokimiyat bilan hisobdorlikni ta'minlash.

⁷⁴ Women's Shelter Annual Report, 2023

Shuningdek, faol ayollar va etakchilar har 6 oyda maxsus malaka oshirish kurslaridan o'tadi. Bu kurslarda kommunikasiya, xavfsizlik, inson huquqlari va gender zo'ravonlikka qarshi kurash bo'yicha bilimlar yangilanadi.

Xulosa va tavsiyalar

Xorijiy mamlakatlar – xususan, Shvesiya, Hindiston, Janubiy Koreya va AQSh tajribasi shuni ko'rsatmoqdaki, mahalliy darajada xotin-qizlar muammolarini aniqlash va hal etishda ijtimoiy sheriklik, institutsional hamkorlik, nuqsonsiz monitoring va axborot maxfiyligini ta'minlash asosiy omillardan hisoblanadi. Mahalla xotin-qizlar faollari faoliyatini yanada samarali tashkil etish uchun quyidagi taklif va tavsiyalar ilgari suriladi:

1. Huquqiy maslahat va jamoat muloqoti asosida faoliyatni kuchaytirish

Shvesiyadagi "Ochiq eshiklar kuni" va huquqiy maslahat markazlari tajribasi asosida, mahallada haftalik huquqiy maslahat kunlarini tashkil etish, faol ayollar orqali jamoat monitoringini joriy etish maqsadga muvofiq.

2. Mahallada tibbiy-ijtimoiy kuzatuv xizmatlarini yo'lga qo'yish

Hindiston tajribasidan kelib chiqib, har bir mahallada ijtimoiy faollar guruhi shakllantirilib, xonadonma-xonadon ayollar va bolalarning holatini kuzatish, maxsus monitoring kartalari asosida hisobot yuritish amaliyoti joriy etish maqsadga muvofiq.

3. Faol ayollar uchun malaka oshirish va kasb-hunar kurslari

Janubiy Koreyaning "Ayollar baxt markazlari" kabi kasbga qayta o'qitish, psixologik ko'mak va zo'ravonlikka qarshi kurash kurslari mahalla markazlarida tashkil etilishi, ijtimoiy faollikni kuchaytiradi.

4. Aholining ehtiyojlarini doimiy tahlil qilish va raqamlashtirish

Murojaatlarni tezkorlik bilan qayta ishlash, umumlashtirish va tahlil qilish uchun markazlashgan raqamli monitoring tizimi joriy etilishi zarur. Bu tizim orqali muammolarning vaqtida aniqlanishi, murojaatlarga javob qaytarish tezligi oshishi ta'minlanadi.

Adabiyotlar:

1. Musurmanova O., Norqulov., Abdurahimova F. Mahallada oila farovonligi: milliy qadriyatlar va odob durdonalari: uslubiy qo'llanma / - Toshkent: "Mahalla va oila" nashriyoti, 2023. - 140 b.

2. Miralimov Sh. Mahalla mehri. – T.: Yoshlar mediaprint, 2021. – 100 b.

3. Egamberdiyeva, N.M., Tuychiyeva. G.G., Ismaylova, R.N. Tauziq va zo'rovonlikdan jabrlangan xotin-qizlarga psixologik yordam ko'rsatish: uslubiy qo'llanma. – Toshkent: "Mahalla va oila" nashriyoti, 2022. – 144 b.

4. OECD. (2020). *Women in Public Life: Gender, Law and Policy in the Middle East and North Africa*.

5. Swedish Institute. (2022). *Gender Equality in Sweden*. Stockholm.

6. Ministry of Women and Child Development, India. (2021). *Integrated Child Development Services (ICDS)*. Government of India.

7. Patel V. et al. (2018). *Role of community health workers in women's mental health care in LMICs*. [PMC5803443](https://pubmed.ncbi.nlm.nih.gov/35803443/)

World Health Organization. (2021). *Mental health of women in community systems*.

8. UN Women. (2020). *Community-based approaches to gender-based violence prevention*.

9. National Institute of Mental Health. (2021). *Psychosocial interventions for vulnerable women*.

10. Zastrow, C., & Kirst-Ashman, K. (2021). *Understanding Human Behavior and the Social Environment*.

11. UNICEF (2022). *Gender equality and psychosocial protection services*.

